https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Qurbonova Roza Shamshidinovna

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,

Noshirlik ishi yo‘nalishi 4-bosqish talabasi

toshkenttalaba@gmail.com

FOLKLORNING BIR BUG‘INI SIFATIDA ERTAKLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI HAMDA ZAMONAVIY USULNI REBUSLARNI TADBIQ QILISH MASALASI

THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF FAIRY TALES AS A PART OF FOLKLORE AND THE ISSUE OF IMPLEMENTING MODERN METHODS OF REBUSES

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СКАЗОК КАК ЧАСТИ ФОЛЬКЛОРА И ПРОБЛЕМА ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ РЕБУСА

Annotatsiya: Maqolada bolalar adabiyotining asosiy bug‘inini tashkil etuvchi ertaklar haqida bo‘lib, yangi usulni ya’ni rasmli ertaklarni tadbiq etish borasida so‘z yurilgan. Rebuslarni ko‘paytirish ularni ertaklarda foydalanish aqliy rivojlanish uchun va ular mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi. Shu bilan birga, ular ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Ertaklar bola tarbiyasidagi o‘rni va yosh bolaning tasaffuri rivojlanishiga yordam beruvchi eng yaxshi vosita. Bolalar adabiyotga ertaklar orqali kirib keladi. Bu ertaklarni qizaqli va auditoriyasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Ertaklar ko‘paysa, ular saralanadi, yaxshilari tanlanadi bu jaroyon bolalar adabiyotining rivojlanishiga imkon beradi, maqolada bu haqida batafsil misollar bilan yoritilgan, misollar berilgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kalit so‘zlar: Bololar adabiyoti, ertak, rebus, folklor, afsona, rivoyat, qahramon.

Abstract: The article is about fairy tales, which are the main part of children's literature, and discusses the introduction of a new method, namely illustrated fairy tales. The increase in rebuses and their use in fairy tales is for mental development, and they increase logical thinking and problem-solving skills. At the same time, they develop a creative approach. Fairy tales play a role in child upbringing and are the best tool for helping to develop the imagination of a young child. Children come to literature through fairy tales. This serves to make fairy tales more attractive and expand their audience. When fairy tales increase, they are sorted, the best ones are selected, this process allows the development of children's literature, the article discusses this in detail with examples, examples are given.

Keywords: Children's literature, fairy tale, rebus, folklore, myth, narrative, charakter.

Аннотация: В статье рассматриваются сказки, составляющие основу детской литературы, и обсуждается внедрение нового метода – иллюстрированных сказок. Увеличение количества ребусов и их использование в сказках способствует умственному развитию, развивает логическое мышление и навыки решения задач. В то же время, они развивают творческий подход. Сказки играют важную роль в воспитании детей и являются лучшим инструментом для развития воображения маленького ребенка. Дети приходят к литературе через сказки. Это делает сказки более привлекательными и расширяет их аудиторию. По мере увеличения количества сказок их сортируют, отбирая лучшие, этот процесс способствует развитию детской литературы. В статье это подробно обсуждается с примерами.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ключевые слова: Детская литература, сказка, ребус, фольклор, миф, повествование, персонаж.

Bolalar adabiyoti – bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqi Bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o‘yin qo‘shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo‘ljallab yaratilgan og‘zaki ijod namunalaridan boshlanadi.[1] Yani bu folklor bilan ham bog‘liq.

Folklor atamasim 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, u “xalq donoligi” degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san’at namunalari — me’morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, og‘zaki adabiyot namunalari tushuniladi.[2]

Har bir san’at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o‘zi tanlagan turni “folklor” deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me’morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi.[3]

Folklor (inglizchadan folk – „xalq“, lore – „bilim“, „donolik“) – xalq ijodini ifodalovchi termin. U ma’lum bir guruh xalqlar, madaniyat yoki submadaniyat uchun umumiy bo‘lgan madaniyat majmuasidir. Unga xalq og‘zaki ijodi an’analari, masalan, rivoyatlar, miflar, afsonalar, maqollar, she’rlar, latifalar va boshqalar kiradi.[4]

Ertak — xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar.

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalar_adabiyoti
[2] Folklorshunoslikka kirish, M. Jorayev, J. Eshonqulov,TOSHKENT - 2017, 12-bet.
[3] Introduction to Folklore. London, 2008. Page7
[4] https://uz.wikipedia.org/wiki/Folklor

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma’nosini bildiradi.[5]

Bolalarga ertak aytib berish, ular harfni tanib, savodi chiqqandan keyin ertaklarni o‘zlari o‘qishi bu ularning tarbiyasining yaxshilanishiga hamda tasaffurining rivojlanishiga olib keladi. Chunki ertaklarda doim yaxshilik g‘olib, hayot haqiqatlaridan yiroq, hayolatdan tashkil topganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar rivojlanib, nutq rivojlanishi bilan hikoya etish afsonalar to‘qish, o‘ylab topgan va unga ishonish ham ommalashdi. Shu jumdalan butun turkiy xalqga mansub Nasriddin Afandi qahramoni ishtirok etgan ertak ham, afsonlar ham bor bu ertak hattoki kattalarga ham yo‘qadi. Afandi doim g‘olib va komik qahramon.

Qozoq bolalar adabiyotida Jirenche sheshen, Aldar ko‘se, Ayazbi kabi afsonaviy qahramonlar bor.

XX asrda ijod etilgan „Maugli“ (R. Kipling), „Kichkina Shahzoda“ (A. de Sent-Ekzyuperi), „Katta va kichik Karlson“ (A. Lindgren), „Toshkent—non shahri“ (A. Neverov), „Vinni Pux“ (A. Miln), „Ahmoq sichqoncha haqida ertak“ (S. Marshak), „Uch baqaloq“ (Yu. Olesha), „Quvnoq jalbaqlar“ (B. Kerboboyev), „Doktor Voyjonim“ (K. Chukovskiy), „Temur va uning komandasi“ (A. Gaydar), „Chipollinoning sarguzashtlari“ (J. Rodari), „Styopa amaki“ (S. Mixalkov), „Kim bo‘lsam ekan?“ (V. Mayakovskiy), „Bilmasvoy quyosh shahrida“ (N. Nosov) singari olam kezib yurgan asarlar o‘zbek kitobxon bolalarida katta taassurot qoldirmoqda. Yuqorida tilga olingan asarlar yosh kitobxonni nimalargadir o‘rgatadi, nimalargadir da’vat etadi. Bu asarlarning ko‘pchiligida ona-Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish („Uch baqaloq“), noshukur bo‘lmaslik, ota-ona pandnasihatiga quloq solish („Ahmoq sichqoncha haqida ertak“), inson va insonga mehr („Maugli“), tabiatni

[5]O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000yil, 208-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

asrash, hayvonot olamini sevish („Doktor Voyjonim“), odamlar xizmatini qilish, beminnat yordam ko‘rsatish („Temur va uning komandasi“), o‘ziga pishiqpuxta bo‘lish, ichki sirlarni o‘zgalarga oshkor qilmaslik („Qizil Shapkacha“), namunali o‘qish, kasb-hunar egasi bo‘lish („Kim bo‘lsam ekan?“), sergak, zukko, quvnoq bo‘lish („Quvnoq jalbaqlar“) dek oliyjanob g‘oyalarning yotishi bolalarning tarjima asarlariga nisbatan bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarini oshiradi.[6]

Qardosh xalqlarda ham ertak va afsonalar bo‘lgan. Masalan, Jirenche sheshen gapga ustomon, aqlli inson va uning xotini Qarasoch chiroyli, aqlli sadoqatli ayol timsoli. Aldar ko‘se aldaydi va faqat yaxshilik yo‘lida yo‘lg‘on so‘zlaydi va yomonlarni jozolovchi shaxs, Ayazbi zukkoligi uchun xonlik darajasiga yetgan shaxs.

*Жиренше шешен қазақтың дәстүрлі ауыз әдебиеті арқылы халық арасына атақ-даңқы кеңінен жайылған айтулы тұлға. Оның туған жылын, қайсы атадан шыққанын, өмір жолдарын дәл тауып айту мүмкін емес. Өйткені Жиренше шешен халық ауыз әдебиетіндегі Алдар Көсе, Қожанасыр тәрізді аңызға айналып кеткен **фольклорлық бейне**. Аңыз бойынша ол Әз Жәнібек ханның тұсында өмір сүрген. Жиренше шешен сол Әз Жәнібектің сарай биі, шешені болғанға ұқсайды. Өйткені халық ауызында да, тарихи шежірелерде де екеуінің есімі қатар аталып отырады.*[7]

Bolalar o‘qishi uchun mo‘ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. O‘zbek bolalar adabiyoti ham Sharq yozma adabiyotida “pandnoma”, “ma’vizatnoma”, “nasihatnoma”, “axloq kitoblari” singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar zaminida voqelikka aylangan bo‘lsa-da, uning

[6] Bolalar adabiyoti, Mamasoli Jumaboyev, TOSHKENT — 2004, 8-bet.

[7] https://kk.wikipedia.org/wiki/%D0%96%D0%B8%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%88%D0%B5_%D1%88%D0%B5%D1%88%D0%B5%D0%BD

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

shakllanishi ma’rifatparvarlik – maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog‘liqligi e’tirof qilinadi.[8]

Ertakga berilgan tariflarga to‘xtalsak ular bari bir biriga o‘xshash, chunki ertakning asosiy maqsadi bolalarning tasavurini shaklantirish bo‘lgan va u folklorning bir bo‘lagi hamda uni xalq o‘ylab topgan.

Ертегі – фольклордың негізгі жанрларының бірі. Ертегі жанры – халық прозасының дамыған, көркемделген түрі, яғни фольклорлық көркем проза.Оның мақсаты – тыңдаушыға ғибрат ұсынумен бірге эстетикалық ләззат беру. Ертегінің атқаратын қызметі кең: ол әрі тәрбиелік, әрі көркем-эстетиккалық әдеби қазына. Ертегінің бүкіл жанрлық ерекшелігі осы екі сипатынан көрінеді. Сондықтан ертегілік прозаның басты міндеті – сюжетті барынша тартымды етіп, көркемдеп, әрлеп баяндау.[9]

Afsonalar xalq o‘ylab topgan va ular bu afsonalarga ishongan.

Қазақ халық ауыз әдебиетінің тарихи негізі бар мол саласы. Онда айтылатын оқиғалардың, кейіпкер аттарының, елді мекен, жер атауларының, мезгіл мөлшерінің деректілігі басым келеді. Қазақ аңыздарын Қорқыт, Асан Қайғы, Алдар Көсе сияқты тарихи адамдар туралы аңыздар мен күй аңыздары деп екі түрге бөлген.[10]

Turklarning ertakga bergan tarifga ko‘ra, ertaklar ko‘pincha g‘ayrioddiy shaxslar, voqealar, sarguzashtlarga bag‘ishlangan va og‘izdan og‘izga, quloqdan quloqqa o‘tib kelgan xayoliy hikoyalar sifatida tavsiflangan.

Ertaklar xalq og‘zaki ijodiga kiradi va jamiyatning umumiy mulki hisoblanadi. Xalqning tasavvuri va umumiy ongidan tug‘ilgan ertaklar tildan tilga o‘tib, avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Ertaklar ko‘pincha g‘ayritabiiy elementlarni o‘z

[8] Bashorat Jamilova, O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI, Toshkent - 2019, 6-bet.
[9] https://kk.wikipedia.org/wiki/%D0%95%D1%80%D1%82%D0%B5%D0%B3%D1%96
[10] https://kk.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D2%A3%D1%8B%D0%B7

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ichiga olgan hikoyalar bo‘lib, ularning qahramonlari bo‘ri, pari, dev, jin, ajdar kabi g‘ayrioddiy mavjudotlar bilan shakllantirilgan. Ko‘pincha yaxshi hamda idial qahramonlar o‘ylab topilgan va ular o‘lmagan, hamma qiyinchilikni aql zakpvat bilim va jismoniy kuch bilan yengib o‘tgan.

Bolalar adabiyoti va ertak bir-birini to‘ldiruvchi ikki muhim unsur bo‘lib, ularni bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bolalar adabiyoti bolalarning rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda shakllantiriladigan, ularning tasavvur olamiga murojaat qiladigan, hissiy intellektini rivojlantiradigan soha sifatida ko‘zga tashlanadi. Ertaklar esa bu adabiy turning asosiy tayanchlaridan biridir. Ertaklar bolalar dunyosida eng qadimiy va ta’sirchan bayon shakllaridan biridir.

Masalların, genellikle olağanüstü kişilere, olaylara, serüvenlere yer verilen ve ağızdan ağıza, kuşaktan kuşağa aktarılarak gelen hayal ürünü hikâyeler olarak tanımlandığı görülmektedir. Masallar, Anonim Halk Edebiyatı içinde yer alır ve toplumun ortak malı olarak kabul edilir. Halkın hayal gücünden ve ortak bilincinden doğan masallar, dilden dile aktarılıp kuşaktan kuşağa geçer. Masallar, genellikle kahramanları kurt, peri, dev, cin, ejderha gibi olağanüstü varlıklarla şekillenen, gerçeküstü unsurlar içeren hikâyelerdir.

Çocuk edebiyatı ve masal, birbirini tamamlayan iki önemli unsurdur ve birbirlerinden ayrı düşünülemezler. Çocuk edebiyatı, çocukların gelişimsel ihtiyaçlarına göre şekillenen, onların hayal dünyasına hitap eden ve duygusal zekalarını geliştiren bir alan olarak öne çıkar.Masallar ise bu edebiyat türünün temel yapı taşlarından biridir[11].

Endi hozirgi kun bolalari tasavuriga to‘xtalsak, avvalgi ertak va afsonoviy qahramonlar ularni qiziqtira oladimi? Qadimiy ertaklarni o‘qishni tafsiya etamiz lekin majburlay olmaymiz. Bu bugungi kun muommasi.

[11] https://www.soylentidergi.com/masallarin-cocuk-edebiyatindaki-yeri-ve-onemi/

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Telefonga bog‘langan, tog‘rirog‘i, ona tomonidan telefonga o‘rgatilgan bola ertak o‘qiydimi?

Yeshim topish uchun ertaklarning elektron variantini yoki ertak asosida yaratilgan multifilmlrni misol qilishimiz ham mumkin. Lekin bizn bu masalaga sal o‘zgacha yangi yechimni tadbiq etamoqdamiz. Bizda bor ertaklarni shu bilan birga yangi ertaklarimizni **rebus**lardan[12] foydalanib, yozish ko‘nikmasini shaklantirishni tafsiya etamiz. Chunki hozirda jumboqli gapdagi yechimni topish uchun ham hikoyani to‘liq o‘qishga jalb qila olamiz.

Rebus–surat, harf va ba’zi bir shartli belgilar vositasida ifoda etiladigan topishmoq (ushbu so‘z dastlab hajviy surat ma’nosida qo‘llangan).[13]

Rebus so‘zlar, harflar, raqamlar yoki tasvirlar yordamida so‘z yoki iborani maxfiy shaklda ifodalovchi o‘yin yoki topishmoqdir. U aqlni charxlash va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ishlatiladi.

Rebuslar ilk bor o‘rta asrlarda Yevropada paydo bo‘lgan. Ular dastlab so‘zlarni tasvirlar bilan ifodalash uchun ishlatilgan. Bu usul ko‘pincha savodsiz odamlar uchun yozuvni tushuntirishda qo‘llanilgan.

Vaqt o‘tishi bilan rebuslar o‘yin va o‘quv vositasiga aylandi. 19-asrda gazeta va jurnallarda rebuslar ommalashdi. Ular o‘quvchilarni jalb qilish uchun qiziqarli topishmoq sifatida chop etilgan.

Rebuslar turli shakllarda bo‘ladi. Eng keng tarqalganlari tasvirli, harfli va raqamli rebuslardir. Har bir tur o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Rebus tuzish ijodiy va mantiqiy jarayondir. Avval ifodalamoqchi bo‘lgan so‘z yoki iborani tanlash kerak. Keyin uni tasvirlar, harflar yoki raqamlar bilan maxfiy shaklda ko‘rsatish lozim.

---

[12] "Rebus" so'zi lotincha "non" ma'nosini anglatuvchi *res* so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, bu so'z 16-asrda Frantsiyada paydo bo'lib, u dastlab matniy (yozma) bo'lmagan, rasmlar va belgilar yordamida ifodalangan jumboqlarni (rebuslarni) tasvirlash uchun ishlatilgan.

[13] https://izoh.uz/word/rebus

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Rebuslar aqliy rivojlanish uchun juda foydali. Ular mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi. Shu bilan birga, ular ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Rebuslar so‘z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Ular yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganishni qiziqarli qiladi. Ayniqsa, bolalar uchun bu o‘quv jarayonini osonlashtiradi.

Rebuslar diqqatni jamlash va sabr-toqatni oshiradi. Ular stressni kamaytiruvchi va dam oluvchi o‘yin sifatida ham ishlaydi. Har qanday yoshdagilar uchun foydali mashg‘ulotdir.

Rebuslar guruhda ishlashni ham rivojlantiradi. Do‘stlar yoki oila a’zolari bilan birgalikda rebus yechish jamoaviy ruhni mustahkamlaydi. Bu ijtimoiy aloqalarni yaxshilaydi.[14]

Bizning tafsiyamiz ertaklarni o‘qishni targ‘ib qilish, bolalar adabiyotiga yangi zamonaviy ertaklarni yaratish va bo‘yitish. Bizning tadqiqotimiz esa mavjud ertaklarni qayta nashrida ularga rebuslar qo‘shish. Zamonaviylarini esa rebuslar bilan bo‘yitish. Bu metod nafaqat bollar balki ota-onalarni ham qiziqtira oladiga usuldir. Kattalar auditoriyasini ham biz jalb qila olamiz. Ular bolaligida eshitgan yoki o‘zlari sevib o‘qigan ertaklarning rebusli jumboqlarini yeshish orqali bolalagini soddaligini eslaydi va bolasi bilan birga vaqt o‘tkazib, telefondan bir oz bo‘lsada chalg‘ib, miyasini dam oldiradi. Bu foydali usulni targ‘ib qilib yangi ertak ham yozdik.

[14] https://javoblar.com/rebus-nima-rebus-tuzish-va-yechish-sirlari/

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Quyida ertagimizdan bitta namuna berdik.

Kichikligida qanday

 Bir bor  ekan, bir  yo‘q ekan. O‘rmonda kishik maktab bo‘lib, unda ukki  o‘qituvchi ekan.  Bu o‘rmondagi yovvoyi hamda uy hayvonlari ahil va inoq yashar va ularning bolalari bir maktabda o‘qir ekan.

Shervachcha  , bo‘rivachcha  yoki  bo‘ltirik  , tulkibola yoki bachki   ,  ayiqcha  , xumpar  , jish , xo‘tik, kurra yoki kudung  , quralay ,bo‘taloq  , qulun yoki toychoq ,buzoq uloq  , kuchuk  , qo‘zichoq , jo‘za  va quyonbola ham o‘qir ekan.

Ularga o‘qituvchi hamjihatlikni va birdamlikni o‘rgatar va hammasi totuv yashar ekan.Bir kuni darsda ular hech o‘tirmadi, sakrab darsga xalaqit berib, u yon buyon sakradi. Ukki unga tanbeh berar ekan, o‘tir xumpar deb yubordi. Xumpar esa men nima qildim dedi, adashdim eshak demoqchi edim kurra esa mening nima aybim bor dedi xafa xolda, ukki bu so‘zlar hayvon nomiligini bilardi-ku, nega, ularni tanbiq berish uchun ishlatdi, uloqqa tarbiyasizlik qilma, ahmoqlik ham deb

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qo‘ydi. Xumpar bilan kurraga esa sizlarni yaxshi ko‘raman-da shunga sizlarning nomingiz o‘g‘izimdan tushmaydi dedi. Xulosa shuki, o‘ylamay gapirilgan so‘z egasini uyaltirib qo‘yishi ma’lum. Avval o‘yla keyin so‘yla, kimnidir ko‘nglini og‘rituvchi bo‘lma.

Bu ertakda biz bolalar hayvon bolalarining nomlarini asl turkiy qadimiy nomlarini bilishi uchun yozdi va tushunishi uchun ularning rasmini qo‘yqik, masalan kurra faqat shevada bor, omma istimolida lekin kam ishlatiladi, hamma ham uning eshak bolasiligini bilmaydi, shunga ko‘ra so‘zning izohini rasmlarda berdik. Bu yangi zamonaviy usuldagi qiziqarli ertaklarimizdan bir namuna.

Xulosa o’rnida ertaklar bola tarbiyasida yordamchi vosita bo’lganligi uchun ertaklarni zamonaviylashtirish bu ertak o’quvchi jamoani, kitobxonlarni ko’paytiradi va hattoki kattalarda ham bu yangi usuldagi ertaklarni o’qishga qiziqish paydo bo’ladi. Rebuslarning yangi usullari o’rganish va uni bor, mavjud, eski ertaklar hamda zamonaviylariga ham tadbiq qilish kerak va bu o’z natijasini samaraliroq beradi degan to’xtamga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Folklorshunoslikka kirish, M. Jorayev, J. Eshonqulov,TOSHKENT - 2017,12b.
2. Introduction to Folklore. London, 2008. Page7
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000yil, 208-bet.
4. Bolalar adabiyoti, Mamasoli Jumaboyev, TOSHKENT — 2004, 8-bet.
5. Bashorat Jamilova, O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI, Toshkent - 2019, 6-b.
6. https://uz.wikipedia
7. https://www.soylentidergi.com/masallarin-cocuk-edebiyatindaki-yeri-ve-onemi/
8. https://izoh.uz/word/rebus
9. https://javoblar.com/rebus-nima-rebus-tuzish-va-yechish-sirlari